

ZULFIYA QUROLBOY QIZI "ARMON ASIRASI" ROMANIDA XARAKTER VA KONFLIKT BIRLIGI

Nabijonova Rohilaxon Muxiddin qizi

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani 27-maktabning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Zulfiya Qurolboy qizining "Armon asirasi" asari o'ziga xos adabiy yondoshuvni namoyon etadi. Asar insonning ichki dunyosini, uning ruhiy holatini va hayotdagi mashaqqatlar bilan yuzma-yuz kelgan shaxslar tasvirini chuqur o'rganadi. Romanda jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydigan, o'zligini yo'qotgan va turli ijtimoiy sharoitlarga moslashishga majbur bo'lgan shaxslarning fojiaiy holatlari tasvirlanadi. Zulfiya Qurolboy qizi bu asarda, "romantik tafakkur"ni yo'qotgan, haqiqatda kun kechirishni va tirikchilikni omon qolish uchun davom ettirayotgan odamlarni tasvirlaydi. O'zining o'ziga xos yondashuvi bilan yozuvchi o'quvchiga jamiyatdagi shaxsiy o'zgarishlar va ruhiy ezgu tuyg'ularni tanitadi. Asar ma'naviy-axloqiy muammolarni o'rta qo'yadi va o'zligini saqlashda insonning yuzlashgan qiyinchiliklarini keng ko'lamda tasvirlaydi.*

Kalit so'zlar: *ruhiy holatlar, fojiaiy shaxslar, jamiyat va ijtimoiy sharoitlar, shaxsiyat o'zgarishlari, ma'naviyat, o'zlikni saqlash, ijtimoiy roman, hayotning oddiy oqimlar.*

Badiiy adabiyot o'zining turli obrazlari va xarakterlari orqali o'quvchini o'ziga tortadi. Bu jalb qilish, tabiatan eng chiroyli va tabiiy jarayonlar bilan bog'liqdir. Yozuvchilar obraz yaratishda uning haqqoniyligini ta'minlash uchun uni hayotga jonlantiradilar. Shuning uchun o'quvchi bu obrazlar bilan tanishar ekan, ular bilan birga yashaydi va uning azoblari o'quvchining o'z azobiga aylanadi. V.G. Belenskiy: "... Unda hech qanday tasodifiy yoki ortiqcha narsa yo'q. Har bir element butunlikka xizmat qiladi, barchasi yagona maqsadga yo'naltirilgan, va barchasi birgalikda go'zallik, yaxlitlik va individualni namoyon qiladi," deydi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti janrlar bo'yicha shakllangan tasavvurlarni o'zgartirib, yaratilayotgan asarlarning nazariy shablonlarga sig'masligini ta'minladi. Ijod erkinligi faqat "nimani yozishga" emas, balki "qanday yozishga" ham ta'sir qiladi. Istalgan tarzda yozish imkoniyati ijodiy tajribalarni sinab ko'rish uchun keng yo'l ochadi. Zulfiya Qurolboy qizining "Armon asirasi" shu nuqtai nazardan o'ziga xos asar bo'lib, unda "romantik tafakkur" aniq ko'rinmaydi. Asarda oddiy odamlarning oddiy, hattoki

jo'n tashvishlari tasvirlangan. Romanda millat tarixining taraqqiyotidagi muhim ijtimoiy voqealar, siyosiy omillar ham aks etgan.

“Armon asirasi”da o'zligini saqlay olmagan, o'z qiyofasiga ega bo'lish imkoniga ega bo'lmagan shaxslarning fojiaiy holatlari va ularning sezgilaridagi titrashi katta hamdardlik bilan tasvirlanadi. Bunday shaxslar doimo o'zlarini turli vaziyatlarga moslashtirishga, hayot kechirishga majbur bo'lib, ularning ichki dunyosidagi tortishuvlar aks ettirilgan. Shuningdek, asarda, hatto eng og'ir sharoitlarda ham, haqiqiy odamning asosiy shaxsiyat sifatlarini o'zgartirib bo'lmaydi, degan g'oya o'z aksini topgan.

Romanda personajlarning ruhiy holatlaridagi ekstremal vaziyatlar, ularning yashirin xususiyatlarini teran tasvirlash orqali ochilgan. Zulfiya Qurolboy qizi, o'z romaniy uslubini yaratishda, milliy adabiyotimizda o'rnatilgan an'anaviy tartiblarga qat'iy rioya etmaydi. Odatda, romanda hayotdagi muhim voqealar va qahramon xarakterlarini ochish uchun ijtimoiy jihatdan ahamiyatli tasvirlar tanlanadi. Biroq, Zulfiya Qurolboy qizi bunday ajratmalarni qilmaydi va qahramonlarini oddiy, mayda va hatto pastki ijtimoiy voqealar fonida tasvirlashdan qochmaydi. Bu yondashuv asarda obrazlarning chuqurroq mohiyatini ochishda adibaga yordam bergan.

“Armon asirasi” asarida aniq bir bosh qahramon tasvirlanmagan. Romandagi hech bir timsolni yirik shaxsiyat egasi deb atash mumkin emas. Na Nasiba, na fojialar girdobida yashagan Donish, na prototipi muallifning o'zi deb hisoblangan Hulkar Armon, na o'zining achchiq qismatiga dosh bera olmayotgan Behzod, na yovuzligi bilan hammani qo'rqitgan Talgat o'z jamiyatini o'zgartirish yoki o'z hayotini yaxshilashga qodir emas. Ularning hech biri ham haqiqiy qahramon darajasiga erishmagan. Shunchaki kun kechirish, yashash va tirikchilikni omon qolish uchun davom ettirish – bu haqiqiy qahramonlik emas. O'ziga munosib bir kunni ko'rishga qodir bo'lmagan odam, hatto yuqori darajadagi imkoniyatlarga ega bo'lsa ham, qahramon sanalmaydi.

“Armon asirasi” asarida favqulodda holatga tushgan odamlarning ruhiy holatlari va ularning hissiy-ma'naviy evrilishlari mukammal tarzda tasvirlangan. Jumladan, asarda o'zbek ayolining yo'qchilik sababli o'zining ezgu sifatlarini yo'qotishi jarayoni juda ta'sirli tarzda aks ettirilgan. Ma'naviyat yuqori tushuncha bo'lib, doimiy va o'zgarmas holat emas, balki u hayotning o'zi, uning turli ta'sirlarida shakllanib, o'zgarib, rivojlanadi. Romanda hayotning noto'g'ri yo'nalishi, faqat moddiy holatga emas, balki ma'naviy-axloqiy sifatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi donolik bilan ko'rsatilgan.

Zulfiya Qurolboy qizi timsollarni chuqur anglab, ularning mohiyatini yorqin aks ettirishning sirlarini yaxshi biladi. Shuning uchun u Nasibaning ruhiy holatidagi o'zgarishni birgina ovoz detali orqali mukammal tarzda tasvirlay olgan. Romanda Nasiba oddiy xatti-harakatlarini tekshiradigan, o'zini tahlil qiladigan, o'ylaydigan bir qahramon

sifatida tasvirlanadi. Nasiba timsolida, mashaqqat va azoblarga qaramay, ezgulikka bo'lgan umid, odamlar va hayotga ishonch tuyg'usidan ayrilmagan o'zbek ayoli tasvirlanadi.

Oilasi tinchligi, bolalarining sog'ligi va erining xotirjamligini o'ylaydigan bu ayol dunyo muammolarini hal qilishni da'vo qilmaydi, shohona hayot orzu qilmaydi, faqat odam qatori tinch yashashni xohlaydi. U na qahramon, na donishmand, na buyuk bir shaxsdir. Ammo, u tirikchilik faqat azoblardan iborat bo'lmasligi kerakligini biladi, odamlarga ishonadi va ezgu kunlarning kelishiga chin dildan umid qiladi. Ana shu umid uning ulug'lanishiga sabab bo'ladi. Chunki, faqat shayton va uning izidan borayotganlar umidsizdirlar.

Zulfiya Qurolboy qizi o'z davridan tashqarida turib, uning ta'siriga berilmaslikning qiyinchiliklarini Hulkar misolida nozik tarzda aks ettiradi. Yozuvchi Hulkar Armonning tabiatidagi o'ziga xosliklarni tasvirlash orqali, hayotning kundalik muammolari va jarayonlarining odamni qanday qilib o'z maqsadidan chetlatishi mumkinligini ko'rsatadi. Ijod va hayotning oddiy oqimlariga qarshi kurashishda imoni zaif bo'lgan shaxs, istamagan holda o'zini ushbu oqimda topishi mumkinligini Hulkar obrazida ochib beradi.

Xulosa. Zulfiya Qurolboy qizining romani ijtimoiy roman emas, chunki u qatlamni emas, shaxsni tasvirlashni maqsad qilib qo'ygan. Odam alohida bir qadriyat emas, balki shunchaki ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi darajasiga tushgan sharoitda uning qiziqishu intilishlari ham maydalashib ketishi asarda ta'sirli aks ettirilgan. Odam haqida shafqatsizlik bilan aytilgan mehr qo'shig'i bo'lmish bu roman yetilgan yaraning yiringlarini sitib chiqarishi zaruriyati kabi majburiy ayovsizlik mahsuli bo'lgan bitikdir. Adoqsiz insoniy dardlar haqida shavq bilan yozilgan mazkur asar har bir o'quvchini o'z xatti-harakatlari haqida o'ylashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зулфия Куролбой кизи. Қадимий кўшик: ҳикоялар. – Т.: О'zbekiston, 2012. – Б. 255-274.
2. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Kamalak, 2016. – 464 б.
3. Кант, Иммануил. Из лекций по этике / Этическая мысль. – М.: Политиздат, 1990. – 480 с.